

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL  
YANVAR OYI**

2022-yilning yanvar oyida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **368,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yil ning yanvar oyiga nisbatan **102,0 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

7,3

19,5

73,2

Yirik qurilish  
tashkilotlari


Norasmiy sektor

Kichik korxona  
va mikrofirmalar

## Qurilish ishlari 2022- yil yanvar oyi uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston</b>				
Respublikasi	368,2	26,8	269,5	71,9
<b>Nukus sh.</b>	<b>121,4</b>	<b>2,0</b>	<b>110,0</b>	<b>9,4</b>
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	20,4	0,3	9,2	10,9
Beruniy	17,4	0,2	8,3	8,9
Bo'zotov	5,9	0,3	5,4	0,2
Qorao'zak	6,7	0,7	5,8	0,2
Kegeyli	7,3	0,2	3,5	3,6
Qo'ng'irot	38,9	14,4	21,1	3,4
Qonliko'l	6,4	0,2	3,4	2,8
Mo'ynoq	24,9	2,6	20,2	2,1
Nukus	17,4	0,7	9,8	6,9
Taxiatosh	19,2	3,4	11,9	3,9
Taxtako'pir	7,4	0,1	6,3	1,0
To'rtko'l	21,7	0,3	20,1	1,3
Xo'jayli	12,0	1,0	9,7	1,3
Chimboy	11,8	0,1	5,7	6,0
Shomanay	9,3	0,1	7,8	1,4
Ellikqal'a	20,1	0,2	11,3	8,6

2022- yilning yanvar oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 26,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,1 % punktga ko'payib, 7,3 % ni tashkil etdi.



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'iroq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 37,1 % i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 114,6 %), Taxiatosh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 17,5 % i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 42,4 %) va Qorao'zak tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 10,8 % i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 340,7 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 73,2 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,5 % ni tashkil etgan holda 269,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



73,2

2022- yil  
yanvar

73,5

2021- yil  
yanvar



**MA’LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Nukus shahri(110,0 mlrd. so‘m yoki umumiylajimga nisbatan 90,7 %), Qo‘ng‘iroq tumani (21,1 mlrd. so‘m yoki 54,2 %), Mo‘ynoq tumani (20,2 mlrd. so‘m yoki umumiylajimga nisbatan 81,4 %), To‘rtko‘l tumani (20,1 mlrd. so‘m yoki umumiylajimga nisbatan 92,5 %), ga to‘g‘ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **19,5 %** ni tashkil etdi yoki **71,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan **107,3 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **18,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **349,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **5,1 %** va **94,9 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar oyida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **64,3 %** i yoki 236,9 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**65,9 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 17,7 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **65,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 148,3 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,0 %** ni tashkil etdi.

**55,0 %**

**98,6 %**


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 70,9 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **98,6 %** ni tashkil etdi.



# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar oyida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	368,2	102,0	100,0
Nukus sh.	121,4	105,0	33,0
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	20,4	103,2	5,6
Beruniy	17,4	105,1	4,7
Bo'zotov	5,9	100,1	1,6
Qorao'zak	6,7	104,3	1,8
Kegeyli	7,3	100,4	2,0
Qo'ng'irot	38,9	104,9	10,6
Qonliko'l	6,4	100,6	1,7
Mo'ynoq	24,9	95,0	6,8
Nukus	17,4	102,1	4,7
Taxiatosh	19,2	90,1	5,2
Taxtako'pir	7,4	97,0	2,0
To'rtko'l	21,7	97,5	5,9
Xo'jayli	12,0	99,1	3,2
Chimboy	11,8	103,4	3,2
Shomanay	9,3	102,6	2,5
Ellikqal'a	20,1	105,4	5,5

# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaring asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

2,3

2021- yil  
yanvar

5,0

69,8

64,8

27,9

2022- yil  
yanvar

30,2



Yirik qurilish  
tashkilotlari



Kichik korxona  
va mikrofirmalar



Norasmiy  
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,0 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,7 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning mos davriga nisbatan 5,0 % punktga kamayib, 64,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,3 % punktga ko'payib, 30,2 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 11,6 % ni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 6,3 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 88,4 % (6,3 % punktga ko'payish)ni tashkil etdi.

ulushi % da



17,9



82,1

Yirik qurilish tashkilotlari

2021- yil yanvar



11,6



88,4

Kichik korxona va mikrofirmalar

2022- yil yanvar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 7,3 % punktga kamaydi va 11,2 % ni tashkil etdi. Qolgan 88,8 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 7,3 % punktga ko'paydi.

**11,2**

2022- yil  
yanvar

**88,8**

2022- yil  
yanvar

2021- yil  
yanvar

**18,5**

2021- yil  
yanvar

**81,5**

*Yirik qurilish  
tashkilotlari  
ulushi*

*Kichik korxona va  
mikrofirmalar  
ulushi*

# Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar oyi

ulushi % da

